

**QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/30.12.2021.Fil.70.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI**

**JUMAYEV ELMUROD BEKPULATOVICH**

**MUSTAQILLIK DAVRI O‘ZBEK ROMANLARIDA  
AMIR TEMUR OBRAZI TALQINLARINING QIYOSIY TAHLILI  
(Muhammad Ali va Nurali Qobul romanlari misolida)**

10.00.02 – O‘zbek adabiyoti

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Qarshi – 2023**

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата доктора философии (PhD) по  
филологическим наукам**

**The contents of the dissertation abstract for a Doctor of Philosophy  
(PhD) in Philology**

**Jumayev Elmurod Bekpulatovich**

Mustaqillik davri o‘zbek romanlarida Amir Temur obrazi talqinlarining  
qiyosiy tahlili (Muhammad Ali va Nurali Qobul romanlari misolida)..... 5

**Жумаев Элмурод Бекпулатович**

Сравнительный анализ интерпретаций образа Амира Темура в узбекских  
романах периода независимости (на примере романов Мухаммеда Али и  
Нурали Кабула)..... 23

**Jumaev Elmurod Bekpulatovich**

The comparative analysis of the interpretations of the image of Amir Temur  
in Uzbek novels of the independence period (in the example of Muhammad Ali  
and Nurali Kabul novels)..... 45

**E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati**

Список опубликованных работ

List of published works..... 49

**QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/30.12.2021.Fil.70.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI**

**JUMAYEV ELMUROD BEKPULATOVICH**

**MUSTAQILLIK DAVRI O‘ZBEK ROMANLARIDA  
AMIR TEMUR OBRAZI TALQINLARINING QIYOSIY TAHLILI  
(Muhammad Ali va Nurali Qobul romanlari misolida)**

10.00.02 – O‘zbek adabiyoti

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Qarshi – 2023**

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida №B2022.1.PhD/Fil2189 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi Qarshi davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, ingliz, rus (rezyume)) Qarshi davlat universiteti veb-sahifasida (www.qarshidu.uz) hamda "ZiyoNet" Axborot ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**To'rayev Damin**

filologiya fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Hasanov Shavkat Axadovich**

filologiya fanlari doktori, professor

**Yakubov Islamjon Axmedjanovich**

filologiya fanlari doktori, professor

**Yetakchi tashkilot:**

**Termiz davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Qarshi davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/30.12.2019.Fil.70.01 raqamli Ilmiy kengashning 2023- yil "07" oktabr soat 18:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 180103, Qarshi shahri, Ko'chabog' ko'chasi 17. Tel.: (0 375) 225-34-13; faks: (0375) 221-00-56; e-mail: qarshidu@mail.uz). Qarshi davlat universiteti 2-binosi, 202-xona.

Dissertatsiya bilan Qarshi davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (186 raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 180103, Qarshi shahri, Ko'chabog' ko'chasi 17. Tel.: (0 375) 225-34-13; faks: (0375) 221-00-56; e-mail: qarshidu@umail.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 2023-yil "23" sentabr kuni tarqatildi (2023-yil "23" sentabr dagi 6 raqamli reestr bayonnomasi).



**G.Ernazarova**

Ilmiy darajalar beruvchi

Ilmiy kengash raisi,

filol.f.d., professor

**N.E.Yuldosheva**

Ilmiy darajalar beruvchi

Ilmiy kengash ilmiy kotibi,

filol.f.d., dotsent

**S.To'laganova**

Ilmiy darajalar beruvchi

Ilmiy kengash qoshidagi

Ilmiy seminar raisi,

filol.f.d. (DSc)

## **KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)**

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati.** Jahon adabiyotshunosligining ajralmas qismi bo'lgan o'zbek adabiyotshunosligida milliy istiqloq va u yaratib bergan imkoniyatlar tufayli ilmiy tafakkur taraqqiyoti va adabiyotshunoslik fanida yangilanish yuz berdi hamda tarix va tarixiy shaxslarni, so'z san'atkorlari badiiy merosini xolis, jahon adabiyoti kontekstida zamonaviy ilmiy metodologik usullar asosida o'rganish davri boshlandi. Shu tariqa milliy adabiy an'analar, tajribalar va jahon adabiyotining ilg'or izlanishlari badiiy sintezlashib, uyg'unlashib, mushtaraklashib borishi bilan birga tarixiy romanning manbalari, uning jahon adabiyoti bilan aloqa bog'lanishlari, badiiy strukturasi, modifikatsiyasi ma'lum bir o'zgarishlarga uchradi va bu jarayonni o'rganish adabiyotshunoslikning muhim va dolzarb muammolaridan biriga aylandi.

Dunyo adabiyoti, jumladan, tarixiy romanchilikdagi badiiy tafakkur masalasiga adabiy-estetik aspektda yondashish, adiblarning obraz yaratish mahoratini ilmiy jihatdan chuqur o'rganish dolzarb masalalardan biri bo'lib kelmoqda. Bunda eng muhim vazifa tarixiy shaxs obrazining jahon tamaddunidagi o'ziga xos intellektual qiyofasini muayyan poetik izlanishlar orqali ifodalash dunyo adabiyotshunosligidagi tarixiy roman taraqqiyoti tamoyiliga nisbatan o'ziga xos yondashuvlardir. Modomiki, tarixiy prozada Amir Temur obrazi talqinlarini qiyosan umumbashariy va milliy ma'naviyatga bog'lagan holda tarixiy romanlarning poetik o'zgarishlari asosida atroflicha o'rganish dolzarb hisoblanadi.

O'zbek adabiyotidagi nasriy asarlar, xususan, tarixiy romanlarning barkamol avlodni tarbiyalashdagi o'rni benihoya kattadir. O'zbek adabiyotining xalqaro miqyosdagi o'rni o'rganish jamiyatdagi milliy iftixor, o'zlikni anglash, qadriyatlarini ulug'lash ehtiyoji bugungi Uchinchi renessans poydevori qo'yilayotgan jarayonda badiiy asarlarning jamiyat rivojidadagi munosib o'rni asoslash, hozirgi adabiy jarayonda o'z so'zi va o'z qarashlari bilan yorqin asarlar yozgan yozuvchilar ijodini qiyosiy aspektda o'rganishni taqozo etmoqda. "Adabiyot xalqning yuragi, elning ma'naviyatini ko'rsatadi. Bugungi murakkab zamonda odamlar qalbiga yo'l topish, ularni ezgu maqsadlarga ilhomlantirishda adabiyotning ta'sirchan kuchidan foydalanish kerak"<sup>1</sup>. Tarixiy romanlarning shakllanishi, taraqqiyoti, tavsifi masalasi yozuvchilarning individual uslubining o'ziga xosliklarida ko'rinadi. Tarixiy shaxsning yetakchilik roli, obraz dinamikasi, jamiyat konsepsiyasi va badiiy mahorat masalasi, ijodkorning ijtimoiy-estetik ideali, tarix va insonni tasvirlash prinsiplari va uslublarining tarixiy romanlardagi tajassumi – Amir Temur obrazining o'rganilishi adabiyot oldida zaruriyatdir. Shu ma'noda Muhammad Ali va Nurali Qobulning Amir Temur obrazi talqinlari aks etgan tarixiy romanlarini qiyosiy o'rganish, tarixiy romanda obraz yaratishning badiiy uslublari muammosi, tarixiy romanlar yaratishdagi jamiyat konsepsiyasi va mahorat masalalari, individuallik va uslubiy farqlar dolzarblik kasb etmoqda.

---

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning A.Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy bog'ida barpo etilgan Adiblar xiyoboniga tashrifi chog'ida so'zlagan nutqidand. – Toshkent, 2020-yil, 20-may.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni, 2017-yil 17-fevraldagi PQ-2789-son “Fanlar akademiyasi faoliyati, ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori, 2017-yil 13-sentabrdagi “Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ib qilish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to‘g‘risida”gi Qarori, 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son “O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni, 2021-yil 26-martdagi PQ-5039-sonli “Ma‘naviyat va ijodni qo‘llab-quvvatlash maqsadli jamg‘armasini tashkil etish to‘g‘risida”gi Qarori, 2021-yil 6-noyabrdagi PF-6108-son “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta‘lim-tarbiya va ilm fan sohalarini rivojlantirish to‘g‘risida”gi Farmoni, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2022-yil 20-dekabrda Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasi hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Jahon va milliy adabiyotda shu kunga qadar buyuk sarkarda va davlat arbobi Amir Temur siyosi turli rakurslarda tarixiy-ilmiy, badiiy yoritilgan. Jumladan, Sharafiddin Ali Yazdiy, Nizomiddin Shomiy, Ibn Arabshoh, Hofizi Abru, Abdurazzoq Samarqandiy, Ahmad Fasihiy, Rui Gonsale de Klavixo, B.Mignanelli, G.Gudrini, M.Rossati, K.Yenoki, R.Gruse, L.Keren, Le Ru, Ye.Ross, X.Xukxem, L.Komarov, F.Mans, G.Golombek, A.Derg, Zakiy Validiy To‘g‘on, M.Sharmua, T.Granovskiy, S.Solovev, M.Ivanin, V.Bartold, A.Yakubovskiy, A.Snesarov, I.Petrushevskiy, N.Konrad, V.Furnyu, M.Monten, I.Schildberg, J.Boden, G.Postel, P.Djiovio, P.Petro, P.Brachchiolini, Prato, Kambini, B.Fregazo, T.Spandujino, I.Mo‘minov<sup>2</sup>, D.To‘rayev<sup>3</sup>, I.Yoqubov<sup>4</sup>, A.Alimbekov<sup>5</sup>, M.Hamroyeva<sup>6</sup>, G.Yusupova<sup>7</sup>,

<sup>2</sup> Бу ҳақда қаранг: Тамурлан. – М.: ГУРАШ, 1992. – С. 542.

<sup>3</sup> Тўраев Д. Ўзбек тетралогияси. – Тошкент: Akademnashr, 2007. – Б. 112.

<sup>4</sup> Ёқубов И. Муस्ताқиллик даври ўзбек романлари поэтикаси. – Тошкент: Nurafshon business, 2021. – Б. 336.

<sup>5</sup> Алимбеков А. Юлдузнинг беш қирраси. – Тошкент: Ўқитувчи НМИУ, 2020. – Б. 390.

<sup>6</sup> Hamroyeva M. Tarixiy haqiqat va badiiy talqin (Nasriy asarlarda Amir Temur obrazi). – Filol.f.n. ...diss. avtoref. – Toshkent, 2010. – B. 21.

<sup>7</sup> Юсупова Г. Ҳозирги ўзбек романларида Амир Темур ва теурийлар образининг бадий талқини. – Филол. ф.н. ...дисс. автореф. – Тошкент, 2005. – Б. 26.

Z.Yaxshiyeva<sup>8</sup>, L.Mardonova<sup>9</sup>, A.Arslonov<sup>10</sup>, A.Uzoqov<sup>11</sup> tarixiy-ilmiy jihatdan o‘rganishgan.

Dunyo va milliy adabiyotshunoslikda tarixiy roman genezisi, uning tadrijiy takomili muayyan darajada tekshirilgan<sup>12</sup>. Ushbu tadqiqotlarda roman janrining spetsifik belgilari, poetik tili, obrazlar tizimi, syujet va kompozitsiyadagi o‘ziga xosliklar, badiiy to‘qima va tarixiy haqiqatning uyg‘unlashuvi, badiiy xronotop, tarixiy makon va zamon birligi, shaxs va jamiyat o‘rtasida uzluksiz davom etadigan murakkab ziddiyatli munosabatlarning badiiy talqini kabi qator nazariy muammolar yoritilgan.

Biz o‘z ishimizda mavzu muammosi nuqtayi nazaridan tadqiqot obyekti sifatida tahlilga tortgan Nurali Qobul romanlari esa adabiyotshunosligimizda hanuzgacha o‘z bahosini olgani yo‘q. Vaholanki, XX asr o‘zbek nasrining taniqli vakillaridan biri Nurali Qobul mustaqillik yillarida Amir Temur va temuriylar hayoti va faoliyati haqida yigirma besh kitobdan iborat “Temuriylar” nomli romanlar turkumini yaratdi.

<sup>8</sup> Яхшиева З. Муҳаммад Алининг “Улуғ салтанат” тетралогиясида тарихий воқелик ва унинг бадий ифодаси. Филол.ф.б.фалс. д-ри (PhD). ...дис. авторефер. – Қарши, 2021. – Б. 140.

<sup>9</sup> Мардонова Л. Муҳаммад Алининг “Улуғ салтанат” роман-тетралогиясида образларнинг бадий поэтик талқини. Филол. ф.б.фалс. д-ри (PhD). ...дис. авторефер. – Қарши, 2022. – Б. 26.

<sup>10</sup> Арслонов А. “Темурнома”ларнинг қўлёзма манбалари ва қиёсий-текстологик тадқиқи. – Термиз: Термиз давлат университети нашр-матбаа маркази, 2022. – Б. 112.

<sup>11</sup> Uzoqov A. O‘zbek prozasida Amir Temur obrazining gavdalanish tamoyillari. Filol.f.b.fals. d-ri. ... (PhD). diss. avtoref. – Guliston, 2023. – B. 134.

<sup>12</sup> Аристотель. Поэтика. – Тошкент: Фафур Гулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1980. – Б. 151; Matthews B. Historical Novel and Other Essays. – Freeport:1968; Cam H. M. Historical Novel. – Leningrad: 1961; Holder A. The Imagined Past. Portrayals of Our History in Modern American Literature. – Lewisburg: 1980; Храпченко М.Б. Творческая индивидуальность писателя и развитие литературы. – М.: Наука, 1970. – С. 266; Бахтин М.М. Проблемы поэтики Достоевского. – М.: Наука, 1973. – С. 207.; Бахтин М.М. Эстетика словесного творчества. – М.: Наука, 1979. – С. 422; Виноградов В.В. Поэтика русской литературы. – М.: Наука, 1976. – С. 484; Жирмунский В.М. Теория литературы. Поэтика. Стилистика. – Л.: Наука, 1977. – С. 404; Поляков М.Я. Вопросы поэтики и художественной семантики. – М.: Советский писатель, 1986. – С.480; Каримов Н. Ойбек. – Тошкент: Ёш гвардия, 1985. – Б. 120; Назаров Б. Ҳаётийлик – безавол мезон: Адабий ўйлар. – Тошкент: Ёш гвардия, 1985. – Б. 224; Ўрта Осиё ва Қозоғистон халқлари адабиётидаги роман жанрини типологик ўрганиш. – Тошкент: Фан, 1991. – Б. 272; Болтабоев Ҳ. Наср ва услуб. – Тошкент: Фан, 1992. – Б. 104; Раҳимов А. Ўзбек романи поэтикаси: Филол.фан.д-ри...дисс.авторефер. – Тошкент, 1993. – Б. 52; Норматов У. Умидбахш тамойиллар. – Тошкент: Маънавият, 2000. – Б. 102; Умутов Ҳ. Бадий ижод асослари. – Тошкент: Ўзбекистон, 2001. – Б. 160; Тўраев Д. Ўзбек романларида бадий тафаккур ва маҳорат муаммоси. – Тошкент: Университет, 2001. – Б. 168; Шарафиддинов О. Ижодни англаш бахти. – Тошкент: Шарқ, 2004. – Б. 640; Саримсоқов Б. Бадийлик асослари ва мезонлари. – Тошкент, 2004. – Б. 127; Қуронов Д. Чўлпон насри поэтикаси. – Тошкент: Шарқ, 2004. – Б. 288; Содик С. Ижоднинг ўтгиз лаҳзаси. Адабий-танқидий мақолалар. – Тошкент: Шарқ, 2005. – Б. 320; Муродов Ф. Тарихий роман: генезиси, кейинги тараққиёти. – Тошкент: Фан, 2005.– Б. 172; Ёқубов И. Ўзбек романи тадрижи. – Тошкент: Фан ва технология, 2006. – Б. 164; Норматов У. Ижод сеҳри. – Тошкент, 2007. – Б. 352; Расулов А. Бадийлик – безавол янгилик. – Тошкент: Шарқ, 2007. – Б. 336; Муродов Ф., Темирова Д. Тарихий романда сюжет муаммоси. – Тошкент: Фан, 2008. – Б. 40; Насиров А. О.Ёқубов романлари поэтикаси. – Тошкент: Фан, 2012. – Б. 160; Раҳимов А. Роман санъати. Фарғона: Фарғона, 2015. – Б. 95; Жўрақулов У. Назарий поэтика масалалари: Муаллиф. Жанр. Хронотоп. – Тошкент: Фафур Гулом, 2015. – 356 б.; Жўрақулов У. Романда замон ва хронотоп шакллари. – Тошкент: Akademnashr, 2015. – Б. 288; Карим Б. Рухият алифбоси. – Тошкент: Фафур Гулом, 2016. – Б. 364; Каримов Ҳ. Кечаги ўзбек насрида ҳаёт ҳақиқати ва инсон концепцияси (70-80-йиллар). – Тошкент: Yangi nashr, 2018. – Б. 320; Каримов Н. Уч буюк сиймо. – Тошкент: Mumtoz soz, 2019. – Б. 428; Султон Саад ал-Қаҳтоний. Саудия адабиётида роман. – Тошкент: Ёшлар нашриёти уйи, 2020. – Б. 360; Каримов Ҳ. Пиримкул Қодиров ижодий олами. – Тошкент: Tafakkur, 2020. – Б. 540; Солижонов Ў. Адабиёт хиёбони. – Фарғона: Фарғона, 2020. – Б. 324.

Q.Yo‘lchiyev<sup>13</sup>, A.To‘ychiyev<sup>14</sup>, M.G‘aniyev<sup>15</sup>, I.Mirzayev<sup>16</sup>, A.Qosimov<sup>17</sup>, U.Rasulova<sup>18</sup>, B.Ahmedov<sup>19</sup> talqin va tadqiqotlarda Nurali Qobul ijodiga fikr-mulohaza bildirgan.

Demak, yuqoridagi ilmiy tadqiqotlardan ko‘rinib turibdiki, bizning mavzuyimiz mutlaqo yangi yo‘nalishda Amir Temur obrazi talqinlarining qiyosiga bag‘ishlanganligi bilan ajralib turadi hamda mazkur ishimizda qo‘yilgan mustaqillik davri o‘zbek romanlarida Amir Temur obrazi talqinlarining qiyosiy tahlili fundamental tadqiqot doirasida o‘rganilgan emas.

**Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi.** Dissertatsiya Qarshi davlat universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining “O‘zbek adabiyotshunosligining dolzarb muammolari” (2020-2023 yy.) mavzusidagi tadqiqot doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** Amir Temur obrazi talqinlaridagi o‘xshash, mushtarak va o‘ziga xosliklar, til va uslublardagi farqlarni Muhammad Alining “Ulug‘ saltanat” tetralogiyasi va Nurali Qobulning silsilaviy tarixiy romanlari misolida ochib berishdan iborat.

#### **Tadqiqotning vazifalari:**

tarixiy romanlarda Amir Temur obrazi yaratishning jamiyat konsepsiyasi, bugunning o‘tmishdan oziqlanishi omillarini ko‘rsatish;

milliy adabiyotda tarixiy roman tadriji, spetsifikasi, modernizatsiyaga uchraganligi va turlari hamda uning jahon adabiyoti bilan mushtarakligini ilmiy isbotlash;

jahon va milliy adabiyotdagi adabiy an‘ana va ta‘sirni ikki ijodkor tarixiy romanlari misolida dalillash;

Muhammad Alining “Ulug‘ saltanat” tetralogiyasi va Nurali Qobul romanlarida Amir Temur va temuriylar obrazi talqinlarining o‘ziga xosligini aniq misollar orqali ko‘rsatish;

ijodkor falsafiy konsepsiyasi va tarixiy romandagi badiiy in‘ikosini qiyosiy o‘rganish;

Amir Temur obrazi talqinlari aks etgan o‘zbek tarixiy romanlarini jahon va o‘zbek adabiyotshunosligining zamonaviy metodologiyasi nuqtayi nazaridan yoritish.

**Tadqiqotning obyektini** Muhammad Alining “Ulug‘ salatanat” tetralogiyasi – “Jahongir Mirzo”<sup>20</sup>, “Mironshoh Mirzo”<sup>21</sup>, “Umarshayx Mirzo”<sup>22</sup>, “Shohruh

<sup>13</sup> Йўлчиев Қ. Нурали Қобулнинг прозаик маҳорати. – Тошкент: Ма’rifat bitiklari, 2021. – Б. 268.

<sup>14</sup> Тўйчиев А. Нурали Қобул насри поэтикаси (Ҳикоя ва қиссалари мисолдида) Филол.фан.д-ри...дисс. автореф. – Гулистон: 2022. – Б. 22.

<sup>15</sup> Ганиев М. Тарихий романда сюжет ва композиция. (Нурали Қобулнинг “Султоннинг сўнгги куни ёхуд Амир Соҳибқирон ва Тўхтамишхон” романи мисолида) Филол. фан...дисс. автореф. – Фарғона, 2022. – Б. 26.

<sup>16</sup> Мирзаев И.О. Янгича тафаккур ва ҳозирги ўзбек насрининг тараққиёт йўллари: Филол. фан. д-ри ...дисс. – Тошкент, 1991. – Б. 293.

<sup>17</sup> Қосимов А. Адабиётда болалик маънавий-ахлоқий категория сифатида (А. де Сент-Экзюперининг “Кичкина шаҳзода” ва Ч.Айтматовнинг “Оқ кема” асарлари асосида). Филол. ф. н. ...дисс. – Тошкент, 1999. – Б. 127.

<sup>18</sup>Расуллова У. XX аср ўзбек қиссачилиги (поэтик изланишлар ва тараққиёт тамойиллари). Филол. фан. д-ри ...дисс. – Тошкент, 2020. – Б. 249.

<sup>19</sup> Аҳмедов Б. Нурали Қобул феномени. Адабиёт газетаси. 2022 йил, 30-сентябрь. 5-6-сон. – Б. 54-55.

<sup>20</sup> М.Али. Улуғ салтанат (Жаҳонгир Мирзо). 1-китоб. Наврўз, – Тошкент, 2019. – Б. 414.

<sup>21</sup> М.Али. Улуғ салтанат (Мироншоҳ Мирзо). 2-китоб. Наврўз, – Тошкент, 2019. – Б. 396.

<sup>22</sup> М.Али. Улуғ салтанат (Умаршайх Мирзо). 3-китоб. Наврўз, – Тошкент, 2019. – Б. 462.

Mirzo<sup>23</sup>” romanlari hamda Nurali Qobulning Buyuk Turon amiri yoxud aql va qilich<sup>24</sup>, “Yetti iqlim hoqoni yoxud ahd va taxt<sup>25</sup>, “Jahon mulkining sultoni yoxud fotih Temur va Yildirim Boyazid”<sup>26</sup>, “Jon va shon talvasasi”<sup>27</sup> romanlari tashkil qiladi.

**Tadqiqotning predmetini** O‘zbek adabiyotida tarixiy roman tadriji va turlari, davr va ikki ijodkorning tarix va insonni tasvirlash prinsiplari, ikki romannavisda adabiy-badiiy an’analar va roman spetsifikasini yangilash jarayoni, tarixiy roman, Muhammad Alining “Ulug‘ saltanat” tetralogiyasi va Nurali Qobul romanlarida Amir Temur va temuriylar obrazi talqinlarining qiyosi muammolari tashkil qiladi.

**Tadqiqotning usullari.** Dissertatsiyaning maqsadidan kelib chiqib, ishda qiyosiy-tipologik, biografik, komparativistik va psixoanalitik metodlardan foydalanildi.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

Muhammad Ali va Nurali Qobul tarixiy romanlarida Amir Temur obrazi talqinlari, o‘xshash, mushtarak tomonlari, davr romanchiligining bir-biriga o‘xshamagan uslublar, obrazlar, xarakterlarning namoyon bo‘lishi, Amir Temur obrazi dinamikasi va tarixiy shaxsning yetakchilik roli talqini, tarixiy shaxs va uning badiiy harakatdagi ifoda ko‘rinishlari aniqlangan;

istiqlol davri badiiy tafakkurining yangilanishi ijtimoiy-tarixiy davr bilan bog‘liqligi, Amir Temurning Yildirim Boyazid bilan bo‘lgan suhbatda kechirimlilik, Amir Husayn bilan bo‘lgan muloqotda sabrlik va andisha, To‘xtamishxonga bo‘lgan otalarcha mehribonlikda bag‘rikenglik xislatlarining namoyon bo‘lishi aniqlangan;

jamiyat konsepsiyasi va badiiy mahorat masalalari Muhammad Ali va Nurali Qobul tarixiy romanlarida obraz yaratishning asosiy konsepsiyalari, ijtimoiy muhit va tarixiy shaxs dialektikasi, shaxsning “men”ga ega bo‘lishi, ilohiy-irfoniy g‘oyalardan oziqlanishi, turkiy xalqlar taqdiri va Turkiston birligi masalasi talqinida badiiy to‘qimaning o‘rni ochib berilgan;

ijodkorlarning Amir Temur obrazi talqinlaridagi individuallik va uslubiy farqlar adiblarning ijtimoiy-estetik ideali, intellekt, tarixiy romanlarning yuzaga kelish omillari, ikki romannavisda adabiy-badiiy an’analar va roman spetsifikasini yangilash jarayoni kuzatilganligi yoritib berilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

Muhammad Ali va Nurali Qobulning tarix, jamiyat, inson va uning psixologiyasini tasvirlash prinsiplari milliy mafkura va g‘oya, barkamol avlod tarbiyasidagi o‘rni va ahamiyatini ko‘rsatishga xizmat qiladi;

tadqiqot natijasida olingan xulosalar adabiyotshunoslik fanini yangi ilmiy-nazariy qarashlar bilan boyitadi va yangi nazariy tamoyillarning maydonga kelishida muhim amaliy ahamiyat kasb etadi;

<sup>23</sup> M.Али. Улуғ салтанат (Шоҳруҳ Мирзо). 4-китоб. Наврӯз. – Тошкент, 2019. – Б. 509.

<sup>24</sup> Нурали Қобул. Бууук Турон амри уоҳуд ақл ва қиліч. Таріхіу роман. – Тошкент: Ма’rifat bitiklari, 2020. – Б. 318.

<sup>25</sup> Нурали Қобул. Етти іқлім ҳоқоні ёҳуд аҳд ва тахт. Таріхіу роман. II. – Тошкент: Ijod Press, 2015. – Б. 478.

<sup>26</sup> Нурали Қобул. Жаҳон мулкининг султони ёҳуд фотіх Темур ва Йилдірیم Боязід. Таріхіу роман. V. – Тошкент: Камалак, 2016. – Б. 438.

<sup>27</sup> Нурали Қобул. Жон ва шон талвасаси. Таріхіу роман. VI. – Тошкент: Ijod press, 2016. – Б. 412.

Muhammad Ali va Nurali Qobulning voqelikka g'oyaviy-estetik munosabati va Amir Temur obrazi masalasini tadqiq etish, ikki ijodkor tarixiy romanining til va uslub xususiyatlari qiyoslanganligi ilmiy yondashuvlarni shakllantirishga xizmat qiladi;

tarixiy asar yaratish talablari va tarixiy romanlarning yuzaga kelishi omillari haqida nazariy xulosalar ishlab chiqilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** muammoning aniq qo'yilganligi, xulosalarning qiyosiy-tipologik, biografik, komparativistik va psixoanalitik metodlari yordamida asoslanganligi, shuningdek, ijodkorlarning "Ulug' saltanat" tetralogiyasi va temuriylar epopeyasiga singdirilgan falsafiy konsepsiyasi, tarix va tarixiy shaxs haqidagi ilmiy-estetik qarashlarining, mualliflarning buyuk davlat arbobi va sarkarda Amir Temur haqidagi ilmiy, tarixiy, biografik asarlardan keng va chuqur foydalanib, ularni badiiy sintez qilinganligi, tadqiqot natijasida chiqarilgan xulosalarning amaliyotga joriy etilganligi va vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlangani bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati "Ulug' saltanat" tetralogiyasi va temuriylar epopeyasining milliy adabiyotdagi qonuniy o'rnini belgilash hamda Muhammad Ali va Nurali Qobul romanlarining jahon romanchiligi an'analari ruhida yozilganligini, ularning o'ziga xos tuzilishi va mundarijasi, obrazlar sistemasi, tarixiy haqiqat va badiiy to'qima uyg'unligi, ijtimoiy muhit va tarixiy shaxs dialektikasi, ijodkor dunyoqarashi va roman tadriji, makon va zamon muammolarini hamda yozuvchi ijodiy laboratoriyasini o'rganishdan iboratligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati oliy ta'lim tizimidagi "Yangi o'zbek adabiyoti", "Hozirgi adabiy jarayon", "O'zbek adabiyoti tanqidi tarixi", "Qiyosiy adabiyotshunoslik" kabi fanlardan darslik, o'quv qo'llanmalar yaratishda yordamchi manba sifatida hamda yozuvchilar ijodi bo'yicha alohida seminar va maxsus kurslarda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Muhammad Alining "Ulug' saltanat" tetralogiyasi va Nurali Qobulning Temuriylar epopeyasini qiyosiy-tipologik tadqiq etish natijalari asosida:

Muhammad Ali va Nurali Qobul tarixiy romanlarida Amir Temur obrazi talqinlari, o'xshash, mushtarak tomonlari, davr romanchiligining bir-biriga o'xshamagan uslublar, obrazlar, xarakterlarning namoyon bo'lishi, Amir Temur obrazi dinamikasi va tarixiy shaxsning yetakchilik roli talqini, tarixiy shaxs va uning badiiy harakatdagi ifoda ko'rinishlari aniqlanganiga doir xulosalardan Samarqand davlat chet tillar institutida bajarilgan I-204-4-5 "Ingliz tili mutaxassislik predmetlaridan axborot-kommunikatsion texnologiyalari asosida virtual resurslar yaratish va o'quv jarayoniga joriy etish" nomli innovatsion tadqiqot loyihasida foydalanilgan (Samarqand davlat chet tillar institutining 2023-yil 25-apreldagi 1092/30.02.01-sonli ma'lumotnomasi). Natijada ikki ijodkorning tarix va insonni tasvirlash prinsiplari, ikki romannavisda adabiy-badiiy an'analari va roman spetsifikasini yangilash jarayoni haqidagi ilmiy-nazariy qarashlarning bugungi kun uchun ham ahamiyatli bo'lgan jihatlarini ko'rsatish imkonini bergan;

istiqlol davri badiiy tafakkurining yangilanishi ijtimoiy-tarixiy davr bilan bog'liqligi, Amir Temurning Yildirim Boyazid bilan bo'lgan suhbatda kechirimlilik, Amir Husayn bilan bo'lgan muloqotda sabrlilik va andisha, To'xtamishxonga bo'lgan otalarcha mehribonlikda bag'rikenglik xislatlarining namoyon bo'lishi aniqlanganiga doir xulosalaridan O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Nasr va adabiy tanqid kengashlari hisobot yig'ilishida, shuningdek, Qashqadaryo viloyat Yozuvchilar uyushmasi qoshidagi "Yoshlik ilhomlari" ijodiy to'garagi faoliyatida va adabiy kechalarda, yozuvchilar bilan bo'lgan uchrashuvlarda foydalanilgan. (O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasining 2023-yil 2-maydagi 01-03/585-son ma'lumotnomasi). Natijada ikki ijodkor tarixiy romanlarining milliy mafkura va g'oya, barkamol avlod tarbiyasidagi o'rni va ahamiyatini ko'rsatish imkonini bergan;

ijodkorlarning Amir Temur obrazi talqinlaridagi individuallik va uslubiy farqlar adiblarning ijtimoiy-estetik ideali, intellekt, tarixiy romanlarning yuzaga kelish omillari, ikki romannavisda adabiy-badiiy an'analar va roman spetsifikasini yangilash jarayoni kuzatilganligi yoritib berilganiga oid xulosalaridan "O'zbekiston tarixi" telekanalida efirga uzatilgan "Taqdimot" ko'rsatuvi ssenariysini tayyorlashda foydalanilgan (O'zbekiston milliy teleradiokompaniyasining 2022-yil 3-avgustdagi 02-31-12-30-son ma'lumotnomasi). Natijada Muhammad Alining "Ulug' saltanat" tetralogiyasi va Nurali Qobul romanlarida Amir Temur va temuriylar obrazi talqinlarini ilmiy va xolisona tahlil etish borasida ilgari surilgan fikrlar asosida ko'rsatuvlarning ilmiy-ommabopligini ta'minlash imkonini bergan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Tadqiqot natijalari 3 ta xalqaro, 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida hamda 4 ta OAK jurnallarida e'lon qilingan ilmiy maqolalar bilan aprobatsiyadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 12 ta ilmiy ish, shulardan, O'zbekiston Respublikasi oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 5 ta maqola, jumladan, 4 tasi respublika, 1 tasi xorijiy jurnallarda e'lon qilingan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, uch asosiy bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlardan iborat, 147 sahifadan tashkil topgan.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Tadqiqotning "**Kirish**" qismida ishning dolzarbligi va zarurati, muammoning o'rganilish darajasi, ilmiy yangiligi, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi, obyekti, predmeti, metodlari, maqsad va vazifalari aniqlangan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati, amaliyotga joriy qilingani, aprobatsiyasi, nashr etilgan ishlar hamda dissertatsiyaning tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi "**Tarixiy roman spetsifikasi va Muhammad Alining "Ulug' saltanat" tetralogiyasida Amir Temur, temuriylar obrazi talqinlari**" deb nomlangan. Mazkur bobning dastlabki "**Tarixiy romanda obraz yaratishning badiiy uslublari muammosi**" deb nomlangan faslida Jahongir

Mirzo barcha yuksak axloqiy sifatlar sohibi sifatida namoyon bo'lganligi, ya'ni barcha jamiyatlar uchun maqsad bo'lgan sog'lom fikrli, jismonan kuchli, halol, vijdonli, yetuk va ma'rifatli barkamol shaxs timsoli sifatida talqin qilinganligi haqida fikr yuritiladi. "Tarixni teran anglash asosida yaratilgan "Ulug' saltanat" (Muhammad Ali) tipidagi roman-epopeyalarning dunyoga kelishi milliy tafakkur ehtiyojining samarasi. "Ulug' saltanat" syujet sertarmoqligi, epik tarixni aks ettirishi jihatidan xalq qahramonlik eposlariga, buyuk tarixiy shaxslar, ko'plab mamlakat va xalqlar taqdiri, o'zaro nizoli urushlar tarixi, davr madaniy hayoti manzaralarini markazlashgan saltanat bunyod etish umidida intilgan Amir Temur shaxsiyati orqali gavdalantirishi jihatidan tarixiy-memuarlar uslubiga yaqin turadi. Roman-tetralogiya badiiy mundarijasini ulug'vor inson hayoti ma'no-mazmunini liro-romantik tarzda anglash, unga baho berishning muayyan mezonlarini shakllantirishga intilish tashkil etadi"<sup>28</sup>.

Tarixiy romanda qahramon obrazi yaratishning muammosini o'rganish bu davr romanchiligining o'ziga xos jihatlarini aniqlash imkonini beradi. Bir-biriga o'xshamagan uslublar, obrazlar, xarakterlarning namoyon bo'lishi bu davr adabiyotining eng katta yutug'idir. "Inson xatti-harakatlarining tahlili, ularning sabab va oqibatlarini, hayotga, boshqa odamlarga munosabatini aniqlash san'atda xarakter yaratishning asosiy belgisini tashkil etadi"<sup>29</sup>. Ayni fikrni Muhammad Ali va Nurali Qobul romanlariga nisbatan ham tatbiq etish mumkin.

Tarixiy asar yaratish uchun ijodkordan quyidagilar talab qilinadi:

yozuvchi o'sha tarixiy davr ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy jarayonlarini chuqur bilishi va tasavvur qila olishi kerak;

tarixiy davrda mavjud jamiyat va shaxs o'rtasidagi hamda shaxslararo ziddiyatlar, dramatik to'qnashuvlar, hattoki tragik voqealarni jonli, ishonchli tasvirlash mahorati yetarli bo'lishi lozim;

o'sha davrning o'zida yashab tarixiy voqealarga guvoh bo'lgan muarrixlarning merosiga asosiy manba sifatida tayanish darkor;

qalamga olinayotgan tarixiy davr voqealaridan so'ng to hozirgi kungacha yaratilgan tarixiy-adabiy manbalarni qiyosiy o'rganish shart;

tarixiy o'tmishni badiiy voqelikka aylantirish jarayonida ijodkorning ijtimoiy-estetik ideali va falsafiy konsepsiyasidan kelib chiqib matnga yondashish, talqin va tahlil etish muhim;

tarixiy romanda tasvirlangan har qanday dramatik holat, jang sahnalari, hattoki yozuvchi badiiy to'qimasi hamda fantaziyasida zamonaviy muammolar, umuminsoniy qadriyatlar ham badiiy sintez qilingan bo'lishi zarur.

Muhammad Ali va Nurali Qobul Amir Temur va temuriylar to'g'risida asar yaratishda tarixiy-adabiy manbalarni puxta o'rganib chiqishgan va o'tmish voqeligini tasvirlashda ayni asarlardan unumli foydalanganlar.

Amir Temur to'rt farzandini saltanatining to'rt ustuni deb biladi. So'zlarning lug'aviy ma'nosiga e'tibor qaratsak, masala bir qadar oydinlashadi: Jahongir – jahonni zabt etish taraddudlari; Umarshayx – dini islom va amir-u shayxlarni

<sup>28</sup> Ёқубов И. Мустақиллик даври ўзбек романлари поэтикаси. – Тошкент: Nurafshon business, 2021. – Б. 35.

<sup>29</sup> Алимов П. Тарих, шахс, бадиа. – Тошкент: Ўзбекистон, 1991. – Б. 4.

o'ziga ustoz-u rahnamo deb bilish; Mironshoh – amirlik martabalarining mustahkam qaror topishi; Shohruh Mirzo – yetti iqlim sultonining ruhiyat iqlimlariga ishora o'z ifodasini topgandek<sup>30</sup>. Muallif epopeyada bu to'rt shahzoda obrazini asar g'oyasi, o'z falsafiy konsepsiyasidan kelib chiqib, birmuncha keng va atroflicha yoritadi. Sohibqiron obrazi “Ulug' saltanat” epopeyasidagi romanlarning barchasini yagona maqsad, yagona g'oya ostida birlashtirib turadi.

Nasimxon Rahmonov “Tarixiy romanning bitta xususiyati bor: bu ham bo'lsa tarixiy voqea bilan roman o'rtasida muvozanatni saqlash va kitobxonni romandagi voqealarga ishonтира olishdir. Yozuvchi mahorati bilan kitobxonni romandagi voqealarga ishonтира olishdir”<sup>31</sup>, – deb yozadi. Darhaqiqat, tarixiy asarda tarixiy haqiqat va badiiy to'qima o'rtasidagi mushtaraklik va muvozanatni saqlab tura olish kerak.

**“Muhammad Ali tetralogiyasida Amir Temur obrazi dinamikasi”** deb nomlangan birinchi bobning ikkinchi faslida asarda mamlakatdagi tahlikali vaziyat, Jahongir Mirzodek suyukli jigaridan ayrilgan hukmdor – Amir Temurning azador holati bilan bog'liq sahifalar hamda Umarshayx Mirzo xarakteri va maishiy hayot tasviri vositasida shaxs va jamiyat muammolari bor dramalari bilan ko'rsatib berilganligi tahlilga tortiladi. Hamma Amir Temurning taxtiga qaytib, yana mamlakat jilovini qo'lga olishiga ilhaq. Muallif bu holatlarni ichki titroq, alamli tuyg'ular bilan badiiy lashtiradiki, kitobxon bevosita Sohibqiron bilan birga dard, iztirob chekadi, so'ng biz yana o'sha holatni – bu gal ham muallifning asar bosh qahramoni qiyofasini ko'z oldimizda haqqoniy jonlantirganiga guvoh bo'lamiz. “Yumaloq yuzi, ko'zlari onasi To'lin oqaga tortgan qo'yko'z Umarshayx Mirzo oriyatli yigit bo'lib o'sdi, ayni paytda te Zob, jizzakiligi bor, qo'rsroq, ba'zan dag'alroq fe'llari ham yo'q emas”<sup>32</sup>. Voqealar davomida Umarshayx Mirzo xarakteri ham ochila boradi. Amir Temurga, buyuk va saxovatli hukmdorga xiyonat qilgan nonko'r To'xtamishxon bilan duch kelganda, uning adolatli yigit ekani ko'zga tashlanadi. Ma'lumki, To'xtamishxon o'z g'animlaridan yengilib, bir necha bor panoh izlab Amir Temur huzuriga bosh urib kelganda, unga yetarli lashkar, oziq-ovqat, qurol-yarog' berilib, Oltin O'rda taxtiga qaytarilgan edi. Uning nonko'rlikini ko'rgan qiziqqon amirzoda – Umarshayx Mirzo ta'na-dashnomini yashirmaydi. “Sening landovurliging tufayli Amir Uljaytu opardiy, Shodravon nayman, Yoruq Temur, Xitoy bahodir kabi sheryuraklar, afsuski, nobud bo'ldilar. To'rtta navkarni boshqara olmagan senday podshohzodani qara-yu!” – dedi u shartakilik bilan”<sup>33</sup>.

Romanda Umarshayx Mirzo mard va jasurligi bilan nom qozongan shahzoda sifatida talqin etiladi. U ko'p janglarda zafar quchib, Sohibqiron ishonchini oqlagan munosib bahodir edi. Uning shiddatiga To'xtamishxondek o'zini yakto-yu tanho botir hisoblovchi Chingizxon avlodi ham tan bergan edi. Umarshayx Mirzo – juda yorqin obraz. U Sohibqiron tomonidan tinimsiz rag'batlantirib turilsa-da, ulug' ehtiromni biror joyda suiiste'mol qilmaydi. Kutilmaganda olamdan o'tgan Umarshayx Mirzo Amir Temurga munosib farzandi arjumand bo'lib yashab o'tadi.

<sup>30</sup> Begmatov E. O'zbek ismlari. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2007. – B. 608.

<sup>31</sup> Раҳмонов Н. Тарихдан озиқланиб. – Тошкент: Мумтоз сўз, 2019. – Б. 15.

<sup>32</sup> Муҳаммад Али. Улуғ салтанат (Шохрух Мирзо). 4-китоб. – Тошкент: Наврўз, 2019. – Б. 209.

<sup>33</sup> Ko'rsatilgan manba. – B. 182.

Uning ham fitrati onalariga, opa-singillariga, o'z haramiga rahm-shafqat ila bezangan edi.

Amir Temur hukmronlik qilgan va buyuk saltanatga asos solingan davr millatimiz tarixining eng yorqin sahifasidir. Biroq Amir Temur shaxsiyati, faoliyatiga bo'lgan munosabat tarixda har doim bir xil bo'lmagan. Buyuk sohibqironning vafotidan keyin, hatto xonliklar davrida ham, sho'ro zamonida ham Amir Temurning qadr-qimmatini, shon-shuhratiga yetarlicha e'tibor berilmagan. Faqatgina jadidlarga buyuk sohibqironga "mustaqillik, ozodlik ramzi sifatida qaradilar"<sup>34</sup>.

Muhammad Ali tetralogiyasida Amir Temur obrazi dinamakasi tarixiy haqiqatlarga mos ravishda tasvirlangan. Adib tarixiy haqiqat va badiiy to'qima uyg'unligini saqlab qolgan holda sohibqiron obrazini bosqichma-bosqich rivojlantirib boradi. Ijtimoiy muhit, maishiy hayot, siyosiy jarayonda faol ishtirok etadigan qahramon sifatida ko'rsatilgan Amir Temur asarda ota, inson, do'st, sarkarda va hukmdor qiyofasida namoyon bo'ladi.

Birinchi bobning uchinchi **"Tarixiy shaxsning yetakchilik roli talqinlari"** deb nomlangan faslida Umarshayx Mirzoning vafoti, o'zi amirzoda bo'laturib, o'gay o'g'lining valiahd deb e'lon qilinishidan norozi bo'lgan, xoin amirlarning qutqusiga uchib, o'z otasiga qarshi borgan Mironshoh Mirzo obrazi talqini orqali davr fojialari ochib berilganligi haqida fikr yuritiladi. U katta akasi valiahd shahzoda Jahongir Mirzo vafotidan yetti yil o'tib, uning bevasi Xorazm malikasi Xonzoda xonimiga uylangan edi. Garchi, u ham kanizak (Mengli bika)dan tug'ilgan farzand bo'lsa-da, o'zini hamisha taxtga munosib nomzod o'rnida ko'rib keladi. Mironshoh Mirzo otdan yiqilib, xasta bo'lib qolgach, ruhiyati sharobga mayl ko'rsatib, saltanat ishlarida sustkashlikka yo'l qo'yadi, atrofidagi fitnachi a'yonlarning nog'orasiga o'ynaydi. Ayniqsa, tarixda nom qoldirish uchun nomdor imoratlar, muhtasham saroylarni "Ostiga xazina ko'milgan!" degan bahona bilan buzdirib yuborishi va xazinaga kelib tushadigan xirojni talon-toroj qilib yuborishi Xonzoda xonimni butkul o'zidan bezdirib yuboradi, oqibatda, Xorazm malikasi uni tashlab ketadi. Asardagi eng murakkab obraz bu Mironshoh Mirzo obrazidir. Mast-alast holda Sohibqironga qarshi beandisha maktub yozadi. Uning baxtiga, maktub manzilgacha yetib bormaydi. Mironshoh Mirzo o'z haramiga xiyonat qilgan yagona temuriy shahzoda. U hatto Jahongir Mirzo vafotidan so'ng o'sha davr odatiga ko'ra, qolaversa, begona qo'llarda xor bo'lmasin deb Saroymulxonim va Amir Temur xohishiga binoan Mironshoh Mirzo nikohiga kirgan Xonzoda xonimni haqorat qiladi. Bu holatdan xabar topgan Sohibqiron uni hokimligidan mahrum etib, yasoqqa hukm qiladi. Amir Temur Mironshoh Mirzoni Xonzoda xonimiga qo'l ko'targani uchun shunday jazolaydi, deb yoziladi ayrim asarlarda. "Ulug' saltanat"da Xonzoda xonim Saroymulxonimdan keyin turadigan tabarruk ayol sifatida tasvirlanadi. U ko'z o'ngimizda vafo va sadoqat, ibo-hayo, sabr-u bardosh timsoli bo'lib gavdalanadi. Sohibqiron uni kelin emas, qizim deb, hatto matonati uchun o'g'lim deb ardoqlaydi. Sohibqironning Xonzoda xonimiga ko'rsatgan g'amxo'rligida u zotning zaifalarga – xotin-qizlarga nisbatan naqadar

<sup>34</sup> Зиёев Х. Буюк Амир Темур салтанати ва унинг тақдири. – Тошкент: Маънавият, 2008. – Б. 7.

e'tiborli, mehr-shafqatli bo'lgani aks etgan. Zero, Amir Temurgacha hech bir hukmdor kelinining ko'z yoshlari uchun o'g'lini jazolamagan bo'lsa kerak.

Romanda muallif Amir Temur hayotining so'nggi kunlarini, vafotini ochiq tasvirlamaydi. Bunda bir ramziylik bor. Amir Temurning tush ko'rishi, muallaq turgan narvondan ko'tarilishi, oltmish to'qqizinchi poyaga yetganida oxirgi zinadan so'ng narvonning o'z-o'zidan g'oyib bo'lishi (endi ortga yo'l yo'q!), Sohibqironning abadiylikka doxil bo'lib, ruhining arshi a'loga ko'tarilishining inja tasviridir. Yozuvchi xotimani mana shunday yuqori pafosda tugallagani ham Amir Temur shaxsiyatiga, uning qilgan ishlariga munosib bo'lgan. Tarixiy shaxsning yetakchilik roli talqinida Muhammad Ali o'ziga xos yondoshadi, u har bir masalada tarixiy haqiqatni saqlab qolishga intiladi. Tetralogiyada Amir Temur tarixiy jarayoning asosiy harakatlantiruvchi va boshqaruvchi kuchi sifatida namoyon bo'lgan.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“Nurali Qobulning tarixiy romanlar yaratishdagi jamiyat konsepsiyasi va badiiy mahorat masalalari”** deb nomlangan. Mazkur bobning **“Nurali Qobul tarixiy romanlarida Amir Temur obrazini yaratishning asosiy konsepsiyalari”** deb nomlangan dastlabki faslida yozuvchining buyuk Temur shaxsining davlatchilikdagi ulug' xizmatlarini ishonchli manbalarga tayanib badiiy aks ettirganligi tahlilga tortiladi. Yozuvchining adabiy-estetik qarashlari bilan tanishar ekanmiz, eng avvalo, ijodkor kim, uning o'zligi qanday namoyon bo'ladi, yaratuvchanlik salohiyati nimalarda ko'rinadi, shaxs darajasiga ko'tarilishi yoki shaxssizlik, yozuvchi “men”i va “mensiz”lik, badiiy ijod va ijodkorlik, dunyoqarash, intuitsiya va boshqalarni badiiy ijodga aloqador tarzda tahlil qilish tashkil etadi. Nurali Qobul “men”likni, eng avvalo, yaratuvchanlikda deb biladi. Muallif “men”likni namoyon qiluvchi yana bir xususiyatlardan biri sifatida ijodkorning shaxs darajasiga ko'tarilishini ko'rsatadi. “Men” faqat shaxslardagina namoyon bo'ladi. Shaxs o'z fikri, dunyoqarashi, o'z so'zi, o'z ovozi, bir so'z bilan aytganda, alohidaligini, o'zligini namoyon qiladigan kishilardir. Amir Temur va Yildirim Boyazid o'rtasidagi ixtilofda bu hol yaqqol ko'rinadi.

Nurali Qobul romanlarida hayotiy voqelik realistik yo'sinda ifoda etiladi hamda hayotiy pafos, hayotiy motivlar talqini yetakchilik qiladi. Shu ma'noda, “Aql va qilich” faqat asarning nomigina emas, balki muhim falsafiy asosga ega bo'lgan tushuncha hamdir. Asarda shu tushunchaning o'ziga xos bo'lgan badiiy talqini, yechimi namoyon bo'ladi. Roman talqinicha, aql fojiaiylikning oldini oluvchi, olamni ham, odamni ham barqaror tutib turuvchi buyuk falsafiy tushunchadir. Agar aql emas, qilich ishga tushsa, olam fojiaiylikka yuz tutadi. Mana bu xulosa romanning yetakchi konsepsiyasi. Bu Nurali Qobul ijodining o'ziga xosligi, ijodida aql-zakovat bilan san'atkorona poetik ifodalarning mohirlik bilan uyg'unlashuvidir. Asarni shu nuqtayi nazardan ilmiy-ijodiy sintezning o'ziga xos namunasi deb baholash mumkin. Nurali Qobul romanlarida Amir Temur obrazini yaratishning asosiy konsepsiyasi tarixiylik, xolislik, haqqoniylik bo'lib, yozuvchi shaxs va jamiyat munosabatlarini yoritishda qahramon dunyoqarashiga katta e'tibor qaratadi. Sof islomiy tafakkur sohibi bo'lgan Amir Temur har bir muhim qaror, hukm chiqarishda diniy aqidaga suyanib ish tutadi. Jahongirning

faoliyatida bosh mezon sanalgan adolat tushunchasi ham diniy e'tiqoddan o'sib chiqqan.

Ikkinchi bobning ikkinchi fasli **“Ijtimoiy muhit va tarixiy shaxs dialektikasi”** deb nomlanadi. Ushbu faslda “Yetti iqlim hoqoni yoxud ahd va taxt” romanidagi ijtimoiy muhit va tarixiy shaxs dialektikasi asarning leytmotivi sifatida maydonga qo'yilganligi masalasi tahlil qilinadi. Roman tariximizning oltin davri sanalgan Amir Temur va temuriyzodalar yashagan davrning mohiyatini anglashda, buyuk ajdodlarimiz tomonidan amalga oshirilgan ulkan bunyodkorlik ishlaridan amaliy ibrat olishda, ma'rifatparvarlik, ilm-fan, san'atning davlat taraqqiysidagi o'rini belgilab olishda muhim ahamiyat kasb etadi. Tarixiy shaxslarni ijtimoiy muhit yaratadi, negaki har bir mashhur shaxs o'z davrining ijtimoiy, siyosiy, ma'naviy ehtiyoji o'laroq paydo bo'ladi. Buni Navoiy va Bobur, Jaloliddin Manguberdi va Temur Malik, Bahouddin Naqshband va Xoja Ahror valiy singari o'nlab tarixiy shaxslar misolida ko'rish mumkin. Amir Temur ham mo'g'ullar zulmi ostida ezilgan xalqni ozodlikka olib chiqish uchun yuborilgan xaloskor sifatida tarix sahnasiga chiqqan hukmdor.

Ijtimoiy muhit va tarixiy shaxs dialektikasi o'zaro bog'liq bo'lib, bir-birini taqozo qiluvchi tushunchalardir. Hayotning asosi, tiriklikning mohiyati, borliqning ibtidoiy nuqtasi va yashashdan maqsad to'g'risida qat'iy xulosalarga ega Amir Temur o'z davrining farzandi sifatida islomiy tartib-qoidalarga so'zsiz amal qiladi. Din peshvolarini, ilm va san'at ahlini qadrlaydi, ularni moddiy va ma'naviy jihatdan qo'llab-quvvatlaydi, ularga homiylik qiladi.

Romanning har bobi epigraf bilan boshlanadi. Birinchi bobda Qur'oni karimdan “Ollohning qullarini sevmasdan uning sevgisiga erisha olmaysan” so'zlari hamda Gyotening “Ko'plar haqiqat bilan shu boisdan olishadilarki, mabodo ular haqiqatni tan olsalar, o'sha zahotiy oq izesiz yo'qolib ketadilar”, – degan fikri epigraf qilib tanlangan. Har ikki ko'chirma bobda kechadigan voqealarning mohiyatini ifodalaydi va epigrafda asarning mazmun mundarijasi aks etgan.

Vaqt o'tishi bilan hamma narsa o'zgaradi, yil fasllarining o'zgarishi qanchalar tabiiy bo'lsa, odamlarning ham, munosabatlarning ham o'zgarishi hech qachon barqaror bo'lmaydi. Nurali Qobul Amir Temur siymosini yaratishda shunday yo'l tutadi. Vaqt o'tishi bilan dushmanga aylangan do'stlar, do'stga aylangan dushmanlar, azbaroyi ilojisizligi uchun bo'yin egib turgan, ammo imkon tug'ilgan zahoti ashaddiy g'animga aylanishi aniq bo'lgan odamlar qiyofasini yaratishda hayot haqiqati chekinmaydi. To'xtamishxon, O'rusxon, Musobek, Yildirim Boyazid kabi obrazlarning har biri alohida bir olam.

Ikkinchi bobning uchinchi **“Turkiy xalqlar taqdiri va Turkiston birligi masalasi talqinida badiiy to'qimaning o'rni”** deb nomlangan faslida romanda turkiy xalqlar taqdiri masalasi ilk marta badiiy tasvirlanganligi hamda mazkur masala metodologik jihatdan yangicha – mustaqillik mafkurasi asosida talqin etilganligiga e'tibor qaratildi.

Nurali Qobulning “Jahon mulkingning sultoni yoxud fotih Temur va Yildirim Boyazid” romanida millat tarixining XIV asrlarida bo'lib o'tgan voqealari bayon qilingan. Asarda ikki dunyoni larzaga keltirgan sultoni Sohibqiron Amir Temur va Usmonli turk sultoni Yildirim Boyazidning Anqaradagi tarixiy jang, bu qonli

to‘qnashuvni keltirib chiqargan sabablar, uning dunyo mamlakatlariga ko‘rsatgan ta‘siri, natijada ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, ma‘naviy hayotda yuzaga kelgan o‘zgarishlar, bir so‘z bilan aytganda, jahon tamadduni taraqqiyotidagi ahamiyati ko‘rsatilgan. Shu bilan bir qatorda, bu jangni keltirib chiqargan sabablarning bugunga qadar keng kitobxonlar ommasiga ma‘lum bo‘lmagan ayrim jihatlari yoritilgan.

Mazkur faslda Turkiston birligi muammosi Temur va temuriylar haqidagi turkum romanlarning markazida turishi, asarda mazkur muammo shaxs erki va Turkiston birligi manzarasida idrok etilishi tahlil qilingan. “Nurali Qobulning buyuk Temur dahosi bilan birga u mansub turkiy ruhiyatga cheksiz va, hatto, ba‘zan tizginsiz insoniy muhabbati butun asar bo‘ylab balqib turadi. Agar badiiy tilga oshuftalik sizga begona bo‘lmasa, ajoyib musiqa, chappar urib gullagan bog‘lar, moviy dengiz, oppoq qorga burkangan tog‘ cho‘qqilari, chaqaloqning qiqirlashlari, sog‘ingan do‘stlarning dilkash suhbatlari sizga ta‘riflanishi qiyin bir huzur bag‘ishlagandek, bu romanning tilidan ana shunday rohatlanish his etasiz. Bu adibning turkiy adabiy va badiiy tilning tarix va bugundagi joziba va go‘zalligini bilishi emas, chuqur his etishi tufaylidir”<sup>35</sup>.

Muallif qahramon tilidan aytilayotgan ushbu illatlarni shunchaki sanab o‘tish bilan cheklanib qolmaydi, bu illatlarning ildizini ochib tashlaydi, mag‘lubiyatga olib kelgan sabablarni aniq ko‘rsatadi. Bunday xatoning oqibati qanday fojialarga olib kelishini va u qoldiradigan asoratlarni, xalq va mamlakatning hayotining izdan chiqib ketishini, qanchadan-qancha odamlarning behuda qurbon bo‘lishini ishonarli, haqqoniy tasvirlaydi.

Yozuvchi nazdida haqiqiy tasviriy san‘at asari – birlamchi mukammallik, go‘zallik bo‘lmish borliq, dunyo, inson, ilohiyat, ruhoniyyat, tiriklik kabilarning, ikkilamchi, ammo o‘ziga xos, g‘oyatda go‘zal va maftunkor ko‘zguisi, timsollari. San‘atdagi go‘zallik oliy haqiqatlarni, tengsiz go‘zalliklarni ta‘sirli tarannum etish, tasdiqlash, taratish orqali, jaholat va yovuzlikni, yolg‘on va xiyonatlarni inkorlash, mahv etish orqali katta ma‘naviy-estetik xaloskorlik funksiyasini ado etadi. Asardagi barcha bir-biriga zid xatti-harakatlar, dunyoqarashlar, lavhalar, ramzlar, ishoratlar, majozlarning xulosaviy ma‘nolari shunday donishona g‘oyalar qamrovida botinan ajib bir tarzda tutashib, ular o‘zaro yaxlit, ulug‘vor, qadr-qimmatli haqiqatlarni roman pafosi darajasiga ko‘taradi.

